



M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogik, metodologik, innovatsion fan va ta'limga oid ilmiy jurnal

№1/2023

Litsenziya raqami: №095310



M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 218 sahifa, 30-oktyabr, 2023-yil.

TAHRIR HAY'ATI:

Qirg'izboyev Abdug'affor Karimjonovich	tarix fanlari doktori, professor	Bosh muharrir
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna	pedagogika fanlari doktori(DSc), professor	Bosh muharrir o'rinbosari
Hamdamova Maxzuna Tursunovna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	Bosh muharrir o'rinbosari
Jamoldinova Odinaxon Rasulovna	pedagogika fanlari doktori, professor	A'zo
Djamilova Nargiza Nuriddinovna	pedagogika fanlari doktori (DSc), professor	A'zo
Babayeva Dono Razzakovna	pedagogika fanlari nomzodi, professor	A'zo
Sadikova Shoista Akbarovna	pedagogika fanlari nomzodi, professor	A'zo
Jumanova Fotima Uralovna	pedagogika fanlari nomzodi, dotsent	A'zo
Shirbachevna Gulchexra Shakirovna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Mirzayeva Farog'at Odiljonovna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent	A'zo
Bafayev Muxiddin Muxammadovich	psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Ne'matov Shuhrat yergashovich	pedagogika fanlari nomzodi	A'zo
Ochilov Sevin Rajaboyevich	Qashqadaryo viloyat Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi Pedagoglarning bilimi hamda ko'nikmalarini baholash sho'basini metodisti	A'zo
Yuldasheva Dilnoza Bekmuradovna	Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Nurkeldiyeva Dilbar Axmedovna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)	A'zo
Radjabova Zuxra Tirkashevna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Gaynazarova Gulbahor Abdullayevna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti



MUNDARIJA

“Ta’lim sifatini oshirish – Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to‘g‘ri yo‘lidir”	6
Qirg‘zboyev Abdug‘affor Karimjonovich	
Ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni takomillashtirish mexanizmlari	8
Ibragimova Gulsanam Ne‘matovna	
Влияние игровой деятельности в процесс изучения английского языка в ДОО	11
Хамдамова Махзуна Турсуновна	
Methodological advancements in the English instruction of preschoolers.....	15
Asiljonova Shohsanam Doniyorovna	
Yangi O‘zbekiston maktabgacha ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar	18
Babayeva D. R.	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni iqtisodiy tarbiyalashda pedagoglar va ota-onalarning o‘zaro ta’siri	21
Bozorbayeva Gulruh Alisher qizi	
Zamonaviy sharoitlarda maktabgacha ta’lim tizimida metodik ishlarni tashkil etish.....	25
Fayziyeva Mabudaxon Muhammadjonovna	
Неполные предложения как объект исследования	28
Ибатова Амира Шавкатовна, Юлдашева Дилноза Бекмуродовна	
Lider va uning fazilatlarini xorijlik olimlar va tadqiqotchilar nigohida	32
Irgasheva Madinabonu Baxromjon qizi	
Ijtimoiy tarbiyada mahallaning o‘rni.....	36
Raximberganova Munajat Muzaffar qizi, Iskandarov Nodirbek Ravshanbekovich	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodiy faoliyatga o‘rgatishda STEAM ta’lim texnologiyasining ahamiyati	38
Kojageldiyeva Aziza Muxsum qizi	
Kredit-modul tizimida mustaqil ta’limni tashkil etishning sharoit va imkoniyatlari.....	41
Mirzayeva Faroxat Odiljonovna, Odiljonova Shoxsanam	
Tolerantlikning tarixiy-falsafiy va psixologik ildizlari.....	46
Bafayev Muxiddin Muhammadovich	
Особенности занятий спортом в подростковом возрасте и их влияние на школьную успеваемость учеников.....	50
Ризаев Азизжон Рахимджанович	
Maktabgacha ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalari	54
Marasulova Dono Nigmatullayevna	
Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini ma’naviy fazilatlarini shakllantirish texnologiyalari.....	59
Matchanov B. O.	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda hayot xavfsizligi ko‘nikmalarini shakllantirishning psixologik xususiyatlari.....	63
Muratova Munavvar O‘rol qizi	
Развитие речи дошкольников как социально-коммуникативный процесс.....	67
Нажмиддинова Гулноза Одилевна	
Bo‘lajak tarbiyachilarning mediakompetentligini oshirish mexanizmlari.....	70
Nazarmatova Dilshoda Umarali qizi	
Методика развития речи дошкольников.....	74
Очилова Хилола Шералиевна	
Okul öncesi dönemde bulunan çocuklar için anne-babaların çocuk kitapları seçim kriterlerinin incelenmesi.....	78
Elem Gökteş	
Дидактическая игра как средство экологического образования детей дошкольника.....	87
Равшанова Наргиза Норбоевна	
Отешова Гульнур Кабуловна	



Оценка эффективности цифровых технологий по сравнению с традиционными методами управления качеством образования в дошкольных учреждениях.....	91
Хайдаров Р.	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda dizaynerlik qobiliyatini rivojlantirish metodikasi	95
Radjapova Zuxra Tirkashevna	
Развитие коммуникативной компетентности среди будущих дошкольных учителей	100
Садикова Шоиста, Тохилова Шохсанам	
Maktabgacha ta'limda yuksalish	104
Shirbachevna Gulchehra Shakirovna, Nuraliyeva Rahbaroy Ravshanbek qizi	
Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilarini kasbga yo'naltirib o'qitishda metodik tayyorgarligini takomillashtirish yuzasidan xalqaro tajribalar	106
Sultansaidova Mushtariy Abzalxanovna	
Model of Professional Competencies Preschool Education Teacher	109
Tokhirova Shokhsanam	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ijtimoiy ongini shakllantirishning metodik shart-sharoitlari	114
Xo'jamatova X. M.	
Zamonaviy o'zbek oilalarda bolalarni milliy ruhda tarbiyalashda qadriyatlarining o'rni	119
Yakubova Zilola Zikirovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarga til o'rgatishda o'yinlardan foydalanish.....	122
Mirkasimova Zilola Alisherovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni kitob o'qishga qiziqtirishda psixologik qo'llab-quvvatlash	124
Musratova Zilola Ulugbekovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxslararo munosabati	128
Alimova Gulchehra Qobilovna, Sadikova Durdoni Shohasan qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sahnalashtirish faoliyatini tashkil etish shakllari	132
Teshabayeva Zamira Sobirovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda qadriyatlar shakllanishida xavotirli holatning ahamiyati	135
Maxmudova Dilorom Axmadovna	
MTT direktorlarini menejerlik faoliyatiga tayyorlash yo'nalishlari.....	137
Nabiyev Erkin Esanovich, Xushiyeva Gavxar Mamatkarimovna	
Xorijiy tillarning psixologik xususiyatlari.....	140
Atayev Shukur-Ali Ayub-Aliyevich	
Possibilities of Developing Social Competence in Future Educators.....	143
Khalilova Dilnoza Furkatovna	
Bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion kompetensiyasini rivojlantirish tamoyillari.....	146
Jumanova Fatima Uralovna	
Talabalarning kasbiy kompetentligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish texnologiyasi.....	149
Kamalova Gavhar Akbarovna	
Til leksik sistemasining kognitiv aspekti nazariyasi.....	152
Muzaffarova Nodira Mardonovna, Umarova Obida Avazxonovna	
Madaniyatlararo muloqot asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning samaradorligi.....	156
Ne'matova G. A.	
Soha mutaxassislarining ijtimoiy psixologik bilimdonligini oshirish muammolari	160
Norboyeva Dilafruz Jumakulovna	
Abdulla Oripov she'riyatida qush nomlari uslubiy vosita sifatida.....	163
Yuldasheva Dilnoza	
Talabaning tadqiqotchilik qobiliyatini rivojlantirishda ilmiy uslubning ahamiyati.....	166
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna	
Raxmatova Saodat Amrakulovna	
Ona bilan munosabatning o'smir tomonidan guruhni idrok etilishiga ta'sir xususiyatlari	172
Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna	



Основные аспекты передачи способностей и генетических характеристик от родителей.....	176
Тургунов Абдурашид Абдуманнобович	
Onalik munosabati autizm sindromli bolalarni ruhiy rivojlanishining omili sifatida.....	182
Asraxonova E'tibor Abduvaxob qizi, Lutfullayeva Iroda Abduvaxob qizi	
Psixik yetuklik bolaning maktab ta'limiga psixologik tayyorligi ko'rsatkichi sifatida	186
Jalilova Saboxat Xalilovna	
O'smirlar tasavvurida stressogen ta'sirlarning psixologik tahlili	191
Ismoilova Nurjaxon Zuxuriddinovna	
Seminar mashg'ulotlarini samarali tashkil etishning "kouching" shakli	196
Mamatkulova Kimyoxon Abdujalilovna	
Shaxs o'zini o'zi faollashtirishi tushunchasining ilmiy mohiyati.....	199
Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o'g'li	
Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlashda tarbiya texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi.....	202
Muxsiyeva Aziza Shamsitdinovna	
Pedagoglarda frustratsion tolerantlik namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari.....	205
Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li	
Kreativ yondashuv asosida talabalarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari.....	209
Farxodov Fozil Baxrom o'g'li, Adizova Gulzoda Mehridinovna	
Социально-педагогическая компетентность воспитателя ДОО.....	212
Ширбачеева Г. Ш., Тиллябаева М. Х.	
Inklyuziv ta'lim jarayonida o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning o'ziga xos qirralari.....	215
Xusanov Samariddin Maxmadaminovich	



PSIXIK YETUKLIK BOLANING MAKTAB TA'LIMIGA PSIXOLOGIK TAYYORLIGI KO'RSATKICHI SIFATIDA

Jalilova Saboxat Xalilovna

Psixologiya fanlari nomzodi, Nizomiy nomidagi
Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti

Annotatsiya: Maqola maktabgacha yoshdagi bolalarning maktab ta'limiga tayyorligi masalasiga bag'ishlangan. Unda asosan maktab ta'limiga psixologik tayyorlikning mohiyati, uning komponentlari, ushbu masalaga bo'lgan turli yondashuvlar tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu muammoni o'rganish bo'yicha o'tkazilgan diagnostika natijalari bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: psixik yetuklik, intellektual soha yetukligi, ijtimoiy yetuklik, emotsional yetuklik, shaxsiy va intellektual rivojlanish, proektiv metodika.

Abstract: The article is devoted to the problem of the psychological readiness of the child for school education. The article analyzes the essence and main components of the psychological readiness of children to study at school, presents various approaches to this problem, and also outlines the results of diagnostics.

Key words: mental maturity, maturity of intellectual sphere, social maturity, emotional maturity, personal and intellectual development, projective methodology.

Аннотация: Статья посвящена проблеме психологической готовности ребенка к школьному обучению. В статье анализированы суть и основные компоненты психологической готовности детей к обучению в школе, представлены различные подходы данной проблеме, а также изложены результаты диагностики.

Ключевые слова: психическая зрелость, зрелость интеллектуальной сферы, социальная зрелость, эмоциональная зрелость, личностное и интеллектуальное развитие, проективная методика.

KIRISH

Har qanday jamiyat har qanday xalqning suyanchi va tayanchi yosh avlodidir. Yurtning kamoli, uning baxti yoshlarning intilishi, aql-u zakovat, bilim va malakasiga bog'liq. Shuning uchun, kelajagini, ertangi kunini o'ylaydigan xalq millatni, yosh avlodni va barkamol avlodni dunyoda hech kimdan kam bo'lmagan insonlar etib tarbiyalashni o'zining asosiy vazifasi deb biladi. Yoshlarimiz barcha zamonlarda ham yurtning kelajagi, ravnaqi, ertangi kuni bo'lib xizmat qilgan.

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida "maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish"¹ masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir... Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma'rifat, yuksak madaniyat kerak. Ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi"².

Kelajagimiz poydevori bo'lgan yosh avlodni tarbiyalash va ularga ta'lim berish masalasiga alohida ahamiyat berib kelinmoqda. Bunda asosiy e'tibor insonning ontogenetik taraqqiyotidagi eng muhim davrlardan biri maktabgacha yosh davrida bolaning psixik rivojlanishiga qaratilishi lozim. Chunki aynan mana shu yosh davrida insonning aqliy, kognitiv, xulq-atvor jihatidan o'sishi uchun poydevor quriladi.

Ayniqsa, maktabgacha bo'lgan yosh davridagi bolalarning psixik taraqqiyoti va ijobiy shaxs xususiyatlarini tarkib toptirishi uchun samarali sharoitlarini yaratish va zarur vositalarni qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, ushbu davrdagi bolalarning maktab ta'limiga psixologik tayyorligi uning kelajakda bilim olishi, o'qish faoliyatida ularda yashirin imkoniyat va qobiliyatlarni yanada taraqqiy ettirish imkonini beradi.

1 O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 08.05.2019. PQ-4312-son.

2 Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T., O'zbekiston, 2021. – 24-bet.



Shunday ekan, bugungi kunda bolalarning maktab ta'limiga psixologik tayyorligini tadqiq etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Bolaning maktabga qabul qilinishi bilan uning hayotida butunlay yangi bosqich boshlanadi. Bu bosqichga esa bola yetarlicha tayyorlangan bo'lishi lozim. Avvalombor, bola unga faqat yangi huquqlarni beribgina qolmay, balki ancha murakkab vazifalarni ham yuklovchi jiddiy faoliyatni bajarishga tayyor bo'lishi kerak. Maktab o'quvchisi o'qituvchining barcha topshiriqlarini sistematik ravishda bajarishi, ayni vaqtda xohlash-xohlamasdikdan qat'iy nazar o'zini maktab qoidalari talablariga mos tarzda tutishi zarur.

7 yoshga yetgan bolalarning ko'pchiligi maktab o'quvchisi holatiga, o'quvchi bo'lishga intiladilar. Biroq, ular doim ham o'quvchi holatini yetarlicha tassavur qila olmaydilar. Ba'zida ularni faqat o'quvchining tashqi ko'rinishi, portfelga ega bo'lishlik, kattadek o'zini his qilish, baho olish qiziqtirish mumkin. Aslida esa bilishga bo'lgan qiziqishlari yetarlicha taraqqiy etgan, yangi bilimlar egallashga intiluvchi bolalargina o'quvchilik holatiga haqiqiy tayyor hisoblanadilar. Shundagina bola o'zining maktabdagi majburiyatlariga jiddiy munosabatda bo'la oladi. Lekin o'quvchi bo'lish xohishi hamda o'qishga jiddiy munosabatda bo'lishning o'zi yetarli emas. Bulardan tashqari yana bola o'zini darsda diqqat-e'tiborli bo'lishga majbur etish, qonun-qoidalarni o'rganish, qiyin masalani qunt bilan yechish kerak. Boshqacha qilib aytganda, bo'lg'usi o'quvchi o'z xulq-atvori, xatti-harakatini ixtiyoriy ravishda boshqarishi, bilish faoliyatini o'quv masalalarini yechishga qaratish zarur.

Maktabga qadam qo'yishi bilan bola umumiy ish bilan mashg'ul bo'lgan tengdoshlar guruhiga kiradi. Bu gramma bog'chadagi tengdoshlar guruhidan tubdan farq qiladi. Maktab o'quvchilarining o'zaro munosabatlari bog'chadagiga qaraganda boshqacha asosda quriladi – sinfda bolaning o'rni boshqacha kriteriya-ko'rsatkichlar, avvalo o'qishdagi muvaffaqiyat bilan belgilanadi. Bunday sharoitlarda jamoaga kirish uchun bola boshqa bolalar bilan o'zaro munosabat o'rnatishning o'ziga xos usullariga ega bo'lishi kerak, o'rtoqlik hissi yaxshi rivojlangan bo'lishi zarur.

Maktabga psixologik tayyor bo'lishlik – bu bolaning avvalgi psixik rivojlanishi, oilada va bog'chada olib borilgan ta'lim-tarbiya sistemasining natijasidir. Muvaffaqiyatli o'qish uchun zarur bo'lgan xislatlar darhol vujudga kelmaydi, balki asta-sekinlik bilan, bolaning tug'ilgan vaqtdan boshlab shakllanadi. Bu xislatlarining shakllanishida faoliyatining o'yin, rasm chizishi, yasash-qurish kabi turlari katta ahamiyatga ega. Aynan shu faoliyat turlarida xulq-atvor, xatti-harakatning ijtimoiy motivlari vujudga keladi, idrok va tafakkur shakllanadi hamda takomillashadi, bolalarning o'rtasidagi o'zaro munosabatlari rivojlanadi. Albatta, bular kattalarning doimiy rahbarligi asosida amalga oshiriladi, chunki kattalar o'sib kelayotgan avlodga ijtimoiy xulq-atvor tajribasini beradilar, zarur bilimlar va ko'nikmalar hosil qiladilar.

Demak, bolaning maktabdagi o'qishga tayyorligi shaxsning ijtimoiy yetuklik bosqichlaridan biridir. Lekin ijtimoiy taraqqiyotning bunday bosqichiga bola o'z-o'zidan ko'tarilmaydi. Uning bu bosqichga ko'tarilishiga bog'cha va oiladagi butun ta'lim-tarbiya ishi yordam beradi.

Bola 7 yoshga yetganda jismoniy jihatdan ancha o'sadi, o'zini idora qilishga o'rganadi, xulq-atvor qoidalarni o'zlashtira boshlaydi. Xotira va tasavvuri o'sadi, ko'pgina she'r va hikoyalarni yoddan biladi. Uning nutqi ma'lum darajada rivojlanib, so'z boyligi ko'payadi. Natijada u o'z o'rtoqlari va kattalar bilan erkin suhbat qila oladigan bo'ladi.

Bog'cha yoshining oxirlariga kelib, bolalarda turli harakatlar rivojlanadi. Bola ruchka, qalam, qaychi kabi predmetlardan foydalanish malakasini egallay boshlaydi.

O'yin va bog'chadagi didaktik mashg'ulotlar jarayonida bolalarning aql-idroki, xotira va tafakkuri o'sadi. Bular o'z navbatida, bolaning maktabda o'qiy olishi uchun psixologik zamin tayyorlaydi. Maktabga tayyorlik muammosini hal qilishda 2 ta nuqtai-nazarni ajratib ko'rsatishi mumkin: pedagogik, psixologik.

Birinchi qarash tarafdorlari bolaning maktabga tayyorligini ularda o'quv malakalari: hisoblash, o'qish, yozishni shakllanganligi bilan belgilaydilar. Ushbu nuqtai-nazar bolalarni ushbu mezonlar bo'yicha tanlash imkonini beradi.

Psixik qarash asosida maktabga tayyorlikni bolaning umumiy psixik rivojlanish ko'rsatkichlarini aniqlash mezoni yotadi. Bunda maktabga tayyorlik bolaning psixik yetuklik darajasini aniqlash orqali belgilanadi. Psixik yetuklik emotsional, intellektual, ijtimoiy sohalarining rivojlanish darajasi sifatida qaraladi.

1. Emotsional yetuklik sohasi – emotsional barqarorlikda namoyon bo'ladi.
2. Intellektual soha – idrokning differentsiatsiyasi (persektiv yetuklik), ixtiyoriy ravishda diqqatni to'plash, analitik taffakur, mantiqiy esda olib qolish, voqelikka ongli (real) munosabatda bo'lish, yangi bilimlar olishga qiziqish, og'zaki nutqqa ega bo'lish, simvollarni tushunishi va qo'llash qobiliyati, ko'ruv-holati koordinatsiyasi rivojlanishida ifodalanadi.
3. Ijtimoiy yetuklik – boshqa bolalar bilan muloqotda bo'lish ehtiyoji, bolalar guruhi qiziqish va an'analariga bo'ysunishi, maktab ta'limi vaziyatlarida o'quvchi rolini bajara olish qobiliyatlarida namoyon bo'ladi.

Amerikalik psixolog A. Anastazining fikricha, maktabga tayyorlik deganda bolada ta'lim olish uchun "bir-lamchi malakalar", ya'ni maktab dasturini yaxshi o'zlashtirish uchun zarur malaka, ko'nikma, bilim, qobiliyat, motivatsiya ko'rinishidagi asosning mavjudligi tushuniladi.

L. S. Vigotskiyning fikricha, ta'lim rivojlanishni o'z orqasidan yergashtiradi. Shu sababli ta'limni psixologik funksiyalar yetilmasdan oldin boshlash mumkin, chunki psixikaning funksional yetukligi o'qish uchun asos emas.

Maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish uchun bolada mavjud bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalar emas, balki shaxsiy va intellektual rivojlanishning muayyan darajasi muhim hisoblanadi. Bular maktabda ta'lim olishning psixologik manbalari hisoblanadi.

Maktabga intellektual tayyorlikni tavsiflashda asosiy urg'u bola tasavvurlari zahirasining miqdoriga emas, balki intellektual jarayonlarning rivojlanishiga qaratiladi.

L. S. Vigotskiy va L. I. Bojovich nuqtayi nazariga ko'ra atrof dunyodagi narsa va hodisalarni umumlashtirish va farqlashni bilishi bolaning maktabga intellektual tayyorligini ko'rsatadi.

METODIKALAR

Maktabga psixologik tayyorlikni diagnostika qilish, avvalombor, bola psixik rivojlanishidagi turli nohushliklarni profilaktikasi uchun amalga oshiriladi. Bolaning maktabga psixologik tayyorligini aniqlashda an'anaviy tarzda Kern-Yirasek testi, shaxs rivojlanishini diagnostika qilish uchun V. G. Shur tomonidan taklif etilgan "Zina" metodikasidan foydalanish mumkin. Ushbu metodika proektiv metodika bo'lib, bolalarning o'zlariga baho berishlari yuqori, adekvat, past darajalarini aniqlash imkonini beradi.


TADQIQOT NATIJALARI

Tadqiqotimiz davomida Kern Yirasek metodikasidan foydalandik. Ushbu metodika bo'yicha olingan ma'lumotlar 1-rasmda aks ettirilgan.

Kern-Yirasek testi 4 ta alohida subtestlardan iborat:

- 1-subtest. Erkak figurasi rasmini chizish.
- 2-subtest. Qisqa jumlani ko'chirib yozish.
- 3-subtest. Nuqtalar guruhini ko'chirib yozish.
- 4-subtest. Verbal topshiriq.

Natijalarni tahlil qilishda barcha subtestlar bo'yicha olingan ma'lumotlar tahlil qilindi hamda umumiy ko'rsatkichga qarab, bolaning maktabga tayyorlik darajasi aniqlandi.




1-rasm: Maktabga psixologik tayyorlik darajalari bo'yicha sinaluvchilar ko'rsatkichlari



Olingan ma'lumotlarga ko'ra, tadqiqotda ishtirok etgan tarbiyalanuvchilarning 53,8 % ida maktabga tayyorlik darajasi yuqori. Ularda barcha subtestlar bo'yicha o'rtacha to'plagan ballari 3–5 ball oralig'ida joylashgan. Bu esa ushbu sinaluvchilarda intellektual taraqqiyot darajasi yuqori ekanligidan darak beradi. Bunday bolalar psixomotor rivojlanish bo'yicha yetuk va maktabga chiqqanlaridan so'ng maktab dezadaptatsiyasi, o'zlashtirmaslik kabi psixologik muammolarga duch kelmaydilar, deb taxmin qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Natijalarning dalolat berishicha, 30,7 % tarbiyalanuvchilarning maktabga tayyorligi o'rta darajani tashkil etadi. Ularning to'plagan o'rtacha ballari 6–7 ball. Bu ham maktabga tayyorlikning shakllanayotganligini ifodalaydi va ular ham maktab ta'limida muayyan qiyinchiliklarga duch kelmasligi haqida xulosa chiqarish imkonini beradi.

Maktabda o'qish faoliyatining samarali bo'lishi bolaning ta'limga nafaqat intellektual tayyorligiga, shu bilan birga uning shaxs xususiyatlari taraqqiyotiga ham bog'liq. Shu sababli tadqiqotimiz davomida tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining o'z-o'zini baholashi xususiyatlarini ham o'rganishni maqsad qilib qo'ydik va buning uchun V.G.Shur tomonidan taklif etilgan "Zina" metodikasidan foydalanildi. Ushbu metodikadan olingan ma'lumotlar 2-rasmda aks ettirilgan.



2-rasm: O'z-o'ziga baho berish ko'rsatkichlari

Ma'lumki, o'z-o'ziga baho berish – bu inson tomonidan o'zining xususiyatlari, yutuqlari, ijobiy tomonlari va kamchiliklarini baholashdir. O'z-o'ziga baho berish shaxs o'z-o'zini anglashining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Metodika natijalariga ko'ra, tarbiyalanuvchilarning 23,1 % ida o'z-o'ziga baho berish yuqori. O'ziga yuqori baho berish o'z imkoniyatlarini, xususiyatlarini yuqori darajada baholash bo'lib, bu davrdagi ko'pchilik bolalarga xos va ular uchun bu norma sanaladi.

38,5 % tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilari o'zlarini adekvat baholashgan. Bu esa bolada o'ziga nisbatan ijobiy munosabat shakllanganligidan, u o'zini va o'z faoliyatini baholay olishidan dalolat beradi. O'ziga adekvat baho berish o'zini baholashning normal ko'rinishidir va bu bolaning o'ziga munosabati yaxshi ekanligini ko'rsatadi, bunda bola o'zining qilgan yaxshi ishlarini ko'rsata oladi.

30,7 % sinaluvchilarda o'ziga biroz past baho berish mavjudligini ko'rish mumkin. Bu bolani hayajonlantirayotgan muammolar borligini ifodalaydi.

3,8% bolalarda past va yana 3,8 % bolalarda juda past o'ziga baho berish kuzatildi. Bunda bola o'ziga negativ munosabatda bo'layotganligini ko'rish mumkin. Bu situativ xarakterda bo'lishi ham mumkin. Bu o'ziga ishonchning pastligi, dezadaptatsiyadan dalolat beradi. Demak, oilada, bog'cha, maktabda vaziyat yaxshi emas, degan xulosa qilish mumkin.

Shu sababli o'ziga past baho berishni korreksiya qilish bo'yicha tadbirlarni tashkil etish taqozo etiladi. Chunki o'z-o'ziga past va juda past baho berish o'ziga bo'lgan ishonchning yetarli bo'lmasligiga va uning oqibatida maktabdagi ta'lim jarayonida o'ziga xos muammolarni kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin. Bunday bolalar maktab sharoitlariga moslashishda, sinfdoshlari hamda pedagoglar bilan munosabatlar o'rnatishda, o'zlashtirishda qiyinchiliklarni boshdan kechirishlari mumkin.

XULOSA

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarning maktab ta'limiga psixologik tayyorligini diagnostika qilishda Kern-Yirasek metodikasi, shaxsiy yetuklikni aniqlashda "Zina" metodikasini qo'llash samarali hisoblanadi.
2. Tadqiqot natijalariga ko'ra tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining 87,5% i maktab ta'limiga psixologik jihatdan tayyor hisoblanadi.
3. Tadqiqotda ishtirok etgan bolalarning 15,4 % i esa maktabga tayyorlik darajasi past bo'lib, bu ko'p jihatdan ota-onalar, MTT psixologi hamda tarbiyachilar tomonidan maktabga tayyorlash bo'yicha yetarlicha ishlar olib borilmaganligini ko'rsatadi.
4. Bolaning maktab ta'limiga shaxs sifatida tayyorligi diagnostikasi natijalari 7,6 % bolalarda o'ziga baho berish past bo'lib, bu o'ziga bo'lgan ishonchning yetarli emasligini ko'rsatadi va kelgusida maktabdagi ta'lim jarayoni bilan bog'liq qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi haqida taxmin qilish mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 08.05.2019. PQ-4312-son.
2. Prezident Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston strategiyasi" nomli kitobi, – T.: O'zbekiston, 2021.
3. Грейс Крайг, Дон Бокум. Психология развития. – М., 2005.
4. Jalilova S. X. Taraqqiyot psixologiyasi va pedagogik psixologiya. – T., 2020.



Muharrir: Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.06.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan №C-5669245
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
ilmiy maqola, reklama materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Тел.: 93 718 40 07

**Manzilimiz: Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**